

---

## Xotin-qizlar faollari tomonidan madaniy tadbir tashkillandi

Kuni kecha Farg'ona shahridagi "Kimyogar" yoshlar markazida Qurbon xayiti munosabati bilan "Milliy qadriyatlar - millat iftixori" nomli xayriya konserti tashkil qilindi. Tadbirda Farg'ona shaxar xokimini o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'lim boshlig'i Dilshodaxon Xolmatova yig'ilganlarni bayram bilan qutladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Farida Anis bayram qatnashchilarning ko'ngilga mexr-oqibat, tinchlik, sadoqatni tarannum etuvchi she'rlari bilan ezgulik ulashdi.

Viloyatimizdagi taniqli xonandalar hamda musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining chiqishlari tadbirga yanada fayz qo'shdi.

Tadbirda 2-sektor hududida joylashgan 18 ta mahalla fuqarolar yig'inlarining xotin-qizlar faollari ishtirok etishib milliy liboslari bilan o'zbek kelinlari ko'rinishda faol qatnashdilar.

Konsert dasturidan shahrimiz fuqarolari madaniy hordiq oldilar hamda tashkilotchilarga o'z minnadorchiliklarini bildirishdi.

2022-07-13 18:45:52